



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№9

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

ROAD

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 260 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 1-sentyabrda ruxsat etildi.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayeich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA


Postdan xaridgacha: influenser va ilg'or veb-ilova (PWA – progressive web app)ning chakana sotuvga real ta'siri	14
Abdulaziz Madjidov	
Ta'lim xizmatlari bozori samaradorligini oshirishda ta'lim klasterlarining roli	22
Imamova Nilufar Asamutdinovna	
Korxona raqobatbardoshligini oshirishda marketingning tovar strategiyasidan foydalanish holati.....	29
Xidirov Sherzod Olimovich	
O'zbekistonda moliyaviy savodxonlikni institutsionallashtirish: NFIS, Finlit.uz va ta'lim islohotlari	34
Irgashev Anvar Farxodovich	
Moslashuvchan menejment tizimlarini yashil iqtisodiyotga integratsiyalash tasnifi	39
Umarov Bexzod Batirovich	
Qishloq xo'jaligida innovatsion marketing strategiyasini ishlab chiqish.....	43
Sheraliyev Axror Sodiqovich	
O'zbekiston Respublikasida moliyaviy bank xizmatlarini rivojlantirishning tendensiyalari, undan samarali foydalanish imkoniyatlari va konseptual jihatlarini	48
Roziqov Behzod Bahrom o'g'li	
Metallurgiya korxonalarida raqamli texnologiyalarni joriy etish chet el tajribasi	54
Abdullayeva Matluba Nematovna	
Исследование связи между восприятием изменения климата и внедрением устойчивых методов ведения сельского хозяйства в Узбекистане	59
Светлана Ражабова, Бахром Миркасимов	
Surxondaryo viloyati qishloq xo'jalik tarmog'ini barqaror rivojlantirishni iqtisodiy-ekologik modellari	68
Abdug'aniyev Otabek Allajonovich, Xo'jamqulov Bekzod Turdaliyevich	
Milliy iqtisodiyotda real sektor salmog'i va uning o'zgarish tendensiyalari	75
Mambetjanov Qahramon Qurbandurdiyevich, Isroilova Muhabbat Rustamjon qizi	
Qo'shilgan qiymatni soliqqa tortish uslubiyoti: xususiyatlari, vazifalari va muammolari	89
Xaitov Shuxrat Sharipboyevich	
Kognitiv yondashuv asosida tibbiyot oliy ta'lim muassasalari talabalari grammatik va diskursiv kompetensiyalarini shakllantirishning nazariy modeli va pedagogik texnologiyasi.....	94
Dadadjanova Feruza Muhammadyusupovna	
Transport tizimining rivojlanishi milliy iqtisodiy o'sishining asosi sifatida	98
Narziyev Umidjon Baxrillayevich	
Loyiha risklarini aniqlashda zamonaviy usullar va ularning samaradorligi.....	105
Marufhanov Davron Xasanovich	
Современные методы управления на железнодорожном транспорте в процессе трансформации системы.....	109
Кушакова Мамура Наримановна	
Финансовые механизмы и модели менеджмента в развитии устойчивой экономики транспортных компаний	115
Шарапова Гулчехра Рустамовна	
Kasbiy ta'limda o'quvchilarning raqamli kompetensiyasini shakllantirish va baholashning innovatsion yondashuvlari	120
Maxkamova Zuhra Tursunpulotovna	
Audit ishi sifati darajasini oshirish yo'nalishlari.....	124
Qushmatov Otaxon Qurbonaliyevich	



Erkin iqtisodiy zonalarda investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning nazariy va amaliy asoslari.....	131
Yuldashev Baxtiyor Gayradjonovich	
Ko'chmas mulk qiymatini baholash va uning ekonometrik tahlili	135
Jaloliddinova Mohira Alisher qizi	
Современные тенденции и вызовы бюджетно-макроэкономической политики в Узбекистане	142
Хазраткулова Лола Нармуминовна	
Intellectual mulkda iqtisodiy mohiyat, mazmun hamda huquqiy jihat uyg'unligi	148
N.D.Maxmudova	
Axborot texnologiyalari asosida ta'limda loyiha boshqaruvida sun'iy intellekt va mashinali o'qitish imkoniyatlari	152
Xodjiyeva Durdona Abdurasolovna	
Концепция "Зеленого учета" и его значение для экономического развития.....	157
Умарова Зулайхо Турсуновна	
Iqtisodiyotning asosiy tarmoq va sohalariga kiritilgan investitsiyalarning joriy holati tahlili	166
Ismailova Kutlibeka Ulug'bek qizi	
O'zbekistonda yoshlar tashkiloti faoliyatini tashkil etishning o'ziga xos jihatlari va rivojlanish bosqichlari	172
Usmonov Adxamjon A'zamjonovich	
O'zbekiston Respublikasi maxsus iqtisodiy zonalarini investitsion holatini hududlar kesimida tahlili.....	178
Anvarxonov Abdulatifxon Jamshidxon o'g'li	
Kichik biznes va o'rta biznesni rivojlantirish orqali aholi farovonligini ta'minlash.....	184
Ahmedov Oybek Turgunpulatovich, Nurqulov Nurbek Sirojiddin o'g'li	
Fiskal siyosat instrumentlari orqali yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va legallashtirish metodologiyasi.....	189
Ergasheva Malikaxon Avazxon qizi	
Fond bozorida savdo strategiyasi va uni amalga oshirishga yo'nalishlari.....	192
Soliev Istam Ixtiyorovich	
Sanoat korxonalarini innovatsion rivojlantirishning asosiy tamoyillari	197
Yuldasheva Kamola Miraliyevna	
Iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda davlat boshqaruvi tizimining isloh qilinishi: Tajriba va istiqbollar.....	202
Mashrabaliyev Ibroximbek Mashrabaliyevich	
Iqtisodiyotning real sektorida investitsion loyihalarni moliyalashtirish amaliyoti.....	209
Qosimova Lola Sultanovna	
Sanoat mahsulotlari eksportida logistika zanjirining uzluksizligini ta'minlash: nazariy asoslar va amaliy yondashuvlar.....	217
Kurbonova Ma'mura Abdukarim qizi	
Soliq ma'murchiligiga zamonaviy texnologiyalarini joriy etish orqali qo'shilgan qiymat soliq ma'murchiligi bazasini kengaytirish yo'llari	222
Raxmonqulov Umidjon Rustam o'g'li	
Инновационные подходы к созданию проблемно-ориентированной системы прогнозирования, оптимизации и управления отраслями региональной экономики (жилищное строительство)	231
Далиев Ахтам Шарафутдинович	
Tovar-moddiy resurslar harakati samaradorligini oshirishda UZEX faoliyatining joriy holatini baholash.....	238
Sherzod Xolmurodovich Pardayev, Mamatkulov Farrux Gulomjon o'gli	
Sog'liqni saqlash tizimida tadbirkorlik faoliyatining turlari	244
Solikhova Dildora Alisher qizi	



“O‘ztemiryo‘lyo‘lovchi” ajning asisii faoliyatini samaradorligini oshirishda autsorsing xizmatini joriy etish strategik asoslari	250
Kaxarova Nilufar Yerkijonovna	
Mintaqani kompleks rivojlantirishning metodologik asoslari va ustuvor yo‘nalishlari.....	256
Jumayeva Zulfiya Qayumovna	



MINTAQANI KOMPLEKS RIVOJLANTIRISHNING METODOLOGIK ASOSLARI VA USTUVOR YO'NALISHLARI

Jumayeva Zulfiya Qayumovna

Osiyo xalqaro universiteti, i.f.f.d., PhD.

Annotatsiya: Ushbu maqolada mintaqani kompleks rivojlantirish tushunchasi va uning nazariy hamda metodologik asoslari keng yoritilgan. Tadqiqotda iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik omillarning o'zaro uyg'unligi, ularni boshqarishda kompleks yondashuv zaruriyati asoslab berilgan. Mintaqaviy rivojlanishda sanoat ishlab chiqarishi, bandlik darajasi, infratuzilma modernizatsiyasi, yalpi hududiy mahsulot hajmini oshirish va atrof-muhit barqarorligini ta'minlash kabi ustuvor yo'nalishlar ko'rsatib o'tilgan. O'zbekiston sharoitida hududlarning barqaror rivojlanishini ta'minlash uchun davlat siyosati, mahalliy tashabbuslar va innovatsion yondashuvlarning o'zaro uyg'unligi alohida ahamiyat kasb etishi ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: mintaqaviy rivojlanish, kompleks yondashuv, hududiy siyosat, ustuvor yo'nalishlar, barqaror iqtisodiyot, sanoat, bandlik, yalpi hududiy mahsulot.

Abstract: This article provides an in-depth analysis of the concept of comprehensive regional development and its theoretical and methodological foundations. It emphasizes the integration of economic, social, and environmental factors and highlights the necessity of a holistic approach to effective territorial management. Key priorities identified include industrial growth, employment generation, infrastructure modernization, increasing gross regional product, and ensuring environmental sustainability. The paper also underscores the importance of harmonizing state policies, local initiatives, and innovative approaches to secure sustainable development of regions in the context of Uzbekistan.

Key words: regional development, comprehensive approach, territorial policy, priority directions, sustainable economy, industry, employment, gross regional product.

Аннотация: В статье подробно раскрывается понятие комплексного развития региона, а также его теоретические и методологические основы. Анализируется необходимость интеграции экономических, социальных и экологических факторов и применения комплексного подхода в управлении территориальным развитием. В качестве приоритетных направлений выделены: рост промышленного производства, обеспечение занятости населения, модернизация инфраструктуры, увеличение объема валового регионального продукта и сохранение экологической устойчивости. Особое внимание уделяется значению гармоничного сочетания государственной политики, местных инициатив и инновационных подходов в обеспечении устойчивого развития регионов в условиях Узбекистана.

Ключевые слова: региональное развитие, комплексный подход, территориальная политика, приоритетные направления, устойчивая экономика, промышленность, занятость, валовой региональный продукт.

KIRISH

Jahonda mintaqaviy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlash global miqyosdagi eng muhim masala bo'lib turibdi. Global iqtisodiy o'sish 2024-yilda 2,6% darajasida saqlanib qolgan bo'lsa, 2025–2026-yillarda o'rtacha 2,7% gacha oshishi kutilmoqda. Bu COVID-19 pandemiyasidan oldingi o'n yillikdagi o'rtacha 3,1% ko'rsatkichdan ancha past. Prognoz shuni ko'rsatadiki, 2024–2026-yillarda dunyo aholisi va global YaIMning 80% dan ortig'ini tashkil etuvchi mamlakatlarda o'sish sur'atlari COVID-19 pandemiyasidan oldingi o'n yillikdagidan past bo'lib qoladi (World Bank, 2024).



So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida hududlarni kompleks rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Bu jarayon hududlarning tabiiy, iqtisodiy va ijtimoiy resurslaridan samarali foydalanish, aholining turmush darajasini oshirish, ishlab chiqarish va xizmatlar sohasini hududiy xususiyatlardan kelib chiqqan holda rivojlantirishni nazarda tutadi.

Mintaqalarni kompleks rivojlantirishning dolzarbligi, bir tomondan, mamlakatning barqaror iqtisodiy o'sishini ta'minlash zarurati bilan, ikkinchi tomondan, hududlararo tafovutlarni kamaytirish va ijtimoiy-iqtisodiy tenglikni ta'minlash ehtiyoji bilan izohlanadi. Shu boisdan, "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi"da har bir hududning ichki salohiyatidan kelib chiqqan holda sanoat klasterlarini shakllantirish, infratuzilmani modernizatsiya qilish, raqamli iqtisodiyotni keng joriy etish hamda ekologik muammolarni hal etish asosiy vazifa qilib belgilangan.

Ilmiy adabiyotlarda mintaqalarni kompleks rivojlantirishning turli metodologik yondashuvlari taklif etilgan bo'lib, ular asosan hududiy iqtisodiyot, strategik rejalashtirish, innovatsion rivojlanish va barqarorlik nazariyalariga asoslanadi. Ushbu yondashuvlarni o'rganish va milliy sharoitga moslashtirish O'zbekiston hududlarining samarali rivojlanishini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu nuqtayi nazardan, mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi mintaqalarni kompleks rivojlantirishning metodologik asoslarini tahlil qilish va O'zbekiston sharoitida ustuvor yo'nalishlarni belgilab berishdan iboratdir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mintaqani kompleks rivojlantirish milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Chunki har bir hududning iqtisodiy salohiyati, tabiiy resurslari, mehnat bozori va ijtimoiy muammolari turlicha. Shu sababli mintaqalarni rivojlantirishda ilmiy asoslangan metodologik yondashuvlar zarur.

Adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, mintaqani kompleks rivojlantirishning metodologik asoslari uchta yirik yo'nalishda shakllangan:

Nazariy yondashuvlar – tizimli va kompleks rivojlanish modellari (Friedmann, Porter, Todaro). Nazariy maktablar (Friedmann, Todaro, Porter) hududiy rivojlanishni markaz-periferiya modeli, iqtisodiy diversifikatsiya va raqobat ustunligi nuqtayi nazaridan izohlaydi.

Milliy siyosat va tajriba – O'zbekiston Respublikasi Prezident qarorlari va mahalliy iqtisodiy tadqiqotlar. Mahalliy tadqiqotlar O'zbekiston hududiy siyosatining ustuvor yo'nalishlarini, xususan, transport infratuzilmasi, qishloq xo'jaligi, kichik biznes va turizmni rivojlantirish zarurligini ta'kidlaydi.

Xalqaro tajriba – OECD, UNDP va Jahon banki hisobotlari asosida innovatsion, ekologik va ijtimoiy yondashuvlar. Xalqaro tashkilotlar (OECD, UNDP, World Bank) barqaror rivojlanishni ta'minlashda ijtimoiy adolat, ekologik xavfsizlik va innovatsion iqtisodiyotga urg'u beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot metodologiyasi mintaqalarni kompleks rivojlantirishning nazariy va amaliy asoslarini ochib berishga qaratilgan bo'lib, turli ilmiy-uslubiy yondashuvlarni birlashtiradi. Avvalo, nazariy tahlil orqali mavjud konsepsiyalar, milliy va xorijiy ilmiy manbalar hamda normativ-huquqiy hujjatlar chuqur o'rganildi. Bu jarayon hududiy siyosatning shakllanishi, barqaror rivojlanish strategiyalari va kompleks yondashuv nazariy asoslarini aniqlash imkonini beradi.

Metodologiyaning keyingi bosqichida statistik hisob-kitoblardan foydalanildi. O'zbekiston hududlari kesimida yalpi hududiy mahsulot (YHM), sanoat ishlab chiqarishi, bandlik darajasi va infratuzilma rivojlanishi bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar yig'ilib, ularning dinamikasi va hududlararo taqqoslanishi amalga oshirildi. Bu orqali hududlar rivojlanishidagi o'zgarishlar, tafovutlar va o'sish tendensiyalari aniqlanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mintaqalarni kompleks rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlari iqtisodiy geografiya, hududiy iqtisodiyot, strategik boshqaruv hamda barqaror rivojlanish konsepsiyalariga tayangan holda shakllanadi. Metodologik yondashuvlar hududiy siyosatning samaradorligini oshirishga, mavjud resurslardan oqilona foydalanishga va aholining ijtimoiy farovonligini ta'minlashga qaratilgan.

Birinchidan, hududiy iqtisodiyot nazariyasi mintaqalarning iqtisodiy salohiyatini baholash, resurslarni taqsimlash va ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish jarayonida muhim ahamiyatga ega. Ushbu nazariya asosida hududlarning tabiiy, mehnat va moliyaviy resurslaridan samarali foydalanish mexanizmlari ishlab chiqiladi.

Ikkinchidan, strategik rejalashtirish metodologiyasi hududlarni uzoq muddatli rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqishda qo'llaniladi. Bu yondashuvda har bir mintaqaning ixtisoslashuvi, raqobat ustunliklari va barqaror rivojlanish imkoniyatlari inobatga olinadi.



Uchinchidan, innovatsion rivojlanish konsepsiyasi zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish va ilmiy-tadqiqot faoliyatini hududiy darajada qo'llab-quvvatlashni nazarda tutadi. Chunki hududlarning raqobatbardoshligi ko'p jihatdan innovatsion faoliyat darajasi bilan belgilanadi.

To'rtinchidan, barqaror rivojlanish paradigmasi ekologik muvozanat, ijtimoiy adolat va iqtisodiy samaradorlikni uyg'unlashtirishni talab qiladi. Bu yondashuvda hududiy rivojlanish faqat iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan emas, balki ekologik xavfsizlik, aholining sifatli hayoti va ijtimoiy himoya darajasi bilan ham baholanadi.

Shuningdek, mintaqalarni kompleks rivojlantirish metodologiyasi kompleks indikatorlar tizimiga asoslanadi. Ularga quyidagilar kiradi:

- hududning yalpi hududiy mahsuloti (YHM) va uning tarkibi;
- bandlik darajasi va mehnat resurslari salohiyati;
- sanoat, qishloq xo'jaligi va xizmat ko'rsatish tarmoqlarining ulushi;
- infratuzilma rivojlanish ko'rsatkichlari;
- ekologik barqarorlik va tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligi.

Ushbu metodologik asoslar hududlarning rivojlanish modelini ishlab chiqishda hamda ustuvor yo'nalishlarni belgilashda tayanch vazifasini bajaradi.

O'zbekiston Respublikasi hududlarini barqaror rivojlantirish mamlakatning uzoq muddatli strategik maqsadlari bilan chambarchas bog'liqdir. Hududiy rivojlanish siyosati iqtisodiy samaradorlik, ijtimoiy farovonlik va ekologik barqarorlikni uyg'unlashtirishga qaratilgan.

1-jadvaldan ko'rinib turibdiki, 2024-yil yakunlariga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi YaIMi hajmi joriy narxlarda 1 454 573,9 mlrd so'mni tashkil etdi va 2023-yil bilan taqqoslaganda 6,5 % ga o'sdi. Oxirgi 5 yilda esa o'rtacha iqtisodiy o'sish sur'ati 5,8 % ni tashkil qilgan.

1-jadval. 2020-2024 yillarda O'zbekiston Respublikasi bo'yicha yalpi ichki mahsulot (YaIM) (mlrd.so'm)

Hududlar	2020	2021	2022	2023	2024
O'zbekiston Respublikasi	668038	820536,6	995573,1	1204485	1454574
Qoraqalpog'iston Respublikasi	25523,4	29738,2	35541,6	39166,2	45658,5
Andijon viloyati	42623,6	48894,3	62981,4	77337,9	90522,1
Buxoro viloyati	35320	43069,7	51728	61242,6	71560,4
Jizzax viloyati	20249,8	25632,4	30367	37383,2	43057,9
Qashqadaryo viloyati	40829,7	49397,5	57629,1	68648,6	80658,3
Navoiy viloyati	51800,6	61118,4	71994,1	88215,4	117297,8
Namangan viloyati	32713,2	40269,1	48513,7	58173,7	68915,7
Samarqand viloyati	47576	59260,4	68988,6	83149,5	99866,1
Surxondaryo viloyati	27571,6	33591,1	39201,8	46999,2	54354,1
Sirdaryo viloyati	14285,1	16865,1	20155,6	24001,7	28003,3
Toshkent viloyati	70691,6	91317,3	103244,8	121442,6	146385,2
Farg'ona viloyati	43413,1	55831,9	65516,9	78009	91333
Xorazm viloyati	23531,8	29737,2	37474,3	43666,7	51261
Toshkent shahri	107474,4	139396,8	172469,3	215099,2	281147,4

2024-yilda respublika bo'yicha YaIMning shakllanishida Toshkent shahri 19,3 % ulush bilan eng katta hissa qo'shdi. Toshkent va Navoiy viloyatlari 10,1 % va 8,1 % ko'rsatkichlari bilan keyingi o'rinlarni egallab turibdi. Respublika YaIMini shakllantirishda eng kam ulush Sirdaryo (1,9 %), Jizzax (3,0 %) viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasiga (3,1 %) to'g'ri kelgan.

Hududlarni kompleks rivojlantirish masalalari bo'yicha o'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, O'zbekiston mintaqalarida iqtisodiy o'sish sur'atlari va ijtimoiy rivojlanish ko'rsatkichlari o'zaro farqlanib borayotgani kuzatiladi. Masalan, Toshkent shahri va Toshkent viloyatida yalpi hududiy mahsulot (YaHM) hajmi nisbatan yuqori bo'lsa, ayrim chekka hududlarda iqtisodiy faollik pastligicha qolmoqda. Bu esa hududlararo tafovutlarni kamaytirishga qaratilgan kompleks yondashuv zarurligini ko'rsatadi.

O'tgan yillardagi statistika shuni tasdiqlaydiki, mamlakat YaIMining qariyb 30 foizi poytaxt hududida shakllanmoqda, biroq Buxoro, Surxondaryo, Jizzax va boshqa viloyatlarning ulushi 3–5 foiz atrofida qolmoqda. Shu sababli, hududlarning iqtisodiy salohiyatini oshirishda resurslardan samarali foydalanish, ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish va kichik biznesni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.



O'zbekiston Respublikasi hududlarini barqaror rivojlantirish mamlakatning uzoq muddatli strategik maqsadlari bilan chambarchas bog'liqdir. Hududiy rivojlanish siyosati iqtisodiy samaradorlik, ijtimoiy farovonlik va ekologik barqarorlikni uyg'unlashtirishga qaratilgan bo'lib, quyidagi ustuvor yo'nalishlarni qamrab oladi:

1. Hududiy iqtisodiy salohiyatdan samarali foydalanish. Har bir viloyat va mintaqaning tabiiy resurslari, geografik joylashuvi va mehnat salohiyatidan kelib chiqqan holda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarini rivojlantirish zarur. Bu borada sanoat klasterlarini tashkil etish, qishloq xo'jaligida qo'shilgan qiymat zanjirlarini shakllantirish muhim hisoblanadi.

2. Innovatsion va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish. Hududiy iqtisodiyotda innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish, startaplarni qo'llab-quvvatlash, raqamli xizmatlar ulushini oshirish ustuvor vazifalardan biridir. Bu yo'nalish hududlarning raqobatbardoshligini ta'minlab, global bozor integratsiyasini kuchaytiradi.

3. Ijtimoiy infratuzilmani modernizatsiya qilish. Sog'liqni saqlash, ta'lim va ijtimoiy xizmatlar tizimini modernizatsiya qilish aholining turmush darajasini oshirishda asosiy omil hisoblanadi. Ayniqsa, chekka hududlarda zamonaviy maktab, shifoxona va kommunikatsiya infratuzilmasini yaratish ustuvor yo'nalish bo'lib qolmoqda.

4. Transport va logistika tizimini rivojlantirish. Hududlararo iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash, eksport-import salohiyatini kengaytirish uchun transport-logistika infratuzilmasini rivojlantirish muhimdir. Yangi avtomobil yo'llari, temir yo'l liniyalari, logistika markazlari va chegara bojxona xizmatlarini modernizatsiya qilish shular jumlasidandir.

5. Ekologik barqarorlik va yashil iqtisodiyot. Hududlarni rivojlantirishda ekologik omillarni hisobga olish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng joriy etish ustuvor vazifalardan biri sanaladi. "Yashil iqtisodiyot" tamoyillarini amaliyotga tatbiq etish orqali atrof-muhitga zarar yetkazmasdan barqaror o'sishga erishish mumkin.

6. Aholini bandlik bilan ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish. Yangi ish o'rinlari yaratish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, yoshlar va ayollar bandligini ta'minlash hududiy siyosatning muhim yo'nalishlaridan hisoblanadi. Bu orqali ijtimoiy barqarorlik va iqtisodiy faollikni kuchaytirish mumkin.

7. Hududlararo tafovutlarni kamaytirish. Poytaxt va viloyatlar, shahar va qishloq hududlari o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy tafovutlarni qisqartirish barqaror rivojlanishning asosiy sharti hisoblanadi. Shu bois, kam rivojlangan hududlarga soliq imtiyozlari berish, investitsiyalarni jalb qilish va mahalliy tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash zarur.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda hududlarni kompleks rivojlantirish jarayoni milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlashda hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Bunday yondashuv nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshiradi, balki aholining ijtimoiy farovonligini yaxshilash, bandlik imkoniyatlarini kengaytirish, hududiy tafovutlarni kamaytirish va ijtimoiy adolatni ta'minlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Hududlarni kompleks rivojlantirishda iqtisodiy modernizatsiya, sanoatning diversifikatsiyasi, infratuzilma loyihalarini kengaytirish va ekologik barqarorlikni saqlash asosiy ustuvor yo'nalishlar sifatida belgilanishi lozim. Shu bilan birga, davlat siyosati va mahalliy tashabbuslarning uyg'unlashuvi orqali hududiy rivojlanishning samarali boshqaruvi ta'minlanadi. Bu esa aholining hayot sifatini yaxshilash bilan bir qatorda, yangi ish o'rinlari yaratishga, investitsiya muhitini yaxshilashga va innovatsion faoliyatni rag'batlantirishga xizmat qiladi.

Taklif sifatida, birinchidan, hududlarni rivojlantirishda bosqichma-bosqich strategiyalarni ishlab chiqish va ularni aniq indikatorlar asosida baholab borish zarur. Ikkinchidan, xalqaro tajribada sinovdan o'tgan innovatsion mexanizmlarni milliy sharoitga moslashtirish, uchinchidan esa hududiy resurslardan oqilona foydalanish, ekologik muvozanatni saqlagan holda iqtisodiy faoliyatni kengaytirish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, hududlarni kompleks rivojlantirishni raqamli texnologiyalar va ilmiy izlanishlar bilan uyg'unlashtirish barqarorlikni mustahkamlashda muhim omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Xolboev A. va boshq. Mintaqaviy iqtisodiyot. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2020.
2. Porter M. Raqobat ustunligi. – Moskva: Alpina, 2005.
3. Todaro M. Iqtisodiy rivojlanish nazariyasi. – Nyu-York, 2018.
4. Рузметов, Б., Рузметов, С., Бахтияров, С., Джумаева, З., и Джураев, К. (2023). Формирование опорных точек роста производства на основе диверсификации региональной промышленности. В сборнике конференций E3S Web of Conferences (т. 449, с. 01001). EDP Sciences.
5. Жумаева З. Стратегические направления формирования точек производственного роста в Бухарской области. Экономика, 4, 455-458.
6. Жумаева, З. К. (2023). Пути устойчивого развития экономики регионов Узбекистана. Господарка и Инновация, 42, 530-533.
7. www.lex.uz



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>